

TASAVVUFSHUNOS INGLIZ OLIMLARI²⁰***Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna***

Filologiya fanlari doktori, professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
Orcid ID: 0000-0001-5013-0792

Qo'chqoraliyeva Xosiyatxon Iqboljon qizi

1-kurs magistratura
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
e-mail: Xosiyatxon2306@gmail.com
tel: +998910593430

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tasavvufni o'rgangan ingliz olimlarining ilmiy tadqiqotlari va xulosalarini tahlil qilish hamda ularning G'arb mamlakatlarida tasavvufga bo'lgan qiziqishning ortishiga ko'rsatgan ta'sirini tadqiq etilgan. Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti asrlar davomida musulmon mamlakatlarida mavjud bo'lsa-da, o'tgan asrda G'arb olimlarining ham e'tiborini tortdi. Tasavvuf ilmiga ko'plab yevropalik va amerikalik tadqiqotchilar, ayniqsa, ingliz olimlari salmoqli hissa qo'shdilar. Ular o'zlarining bu sohadagi ilmiy maqolalari, tadqiqotlari va kitoblari orqali G'arb mamlakatlarida tasavvuf haqidagi tushunchalarni tarqatishda, tasavvufning tegishli g'oyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynadilar. Ushbu maqolada Martin Lings, Devin DeUiz va Reynolds Nikolson kabi britaniyalik olimlarning tasavvuf haqidagi qarashlari, tadqiqotlari va ilmiy xizmatlari o'rganiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi mazkur olimlarning tasavvuf sohasiga qo'shgan qimmatli hissasini atroflicha tahlil qilish va muhokama etishdan iboratdir.

KALIT SO'ZLAR

Tasavvuf, tariqat, darvish, murshid, murid, zikr, tajalli, shariat, haqiqat, ma'rifat, Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya.

Received: January 11, 2024

Accepted: January 30, 2024

Available online: May 2, 2025

²⁰ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Xalliyeva G, Qo'chqoraliyeva X. Tasavvufshunos ingliz olimlari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 251-261.

АНГЛИЙСКИЕ УЧЕНЫЕ-СУФИЕВЕДЫ***Халлиева Гулноз Искандаровна***

Доктор филологических наук, профессор
Узбекский государственный
университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан
Orcid ID: 0000-0001-5013-0792

Кучкаралиева Хосиятхон Икбалжановна

Магистрант 2-го курса
Узбекский государственный
университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан
E-mail: Xosiyatxon2306@gmail.com
Тел.: +998910593430

АННОТАЦИЯ

Цель данной статьи – проанализировать научные исследования и открытия английских ученых, изучавших суфизм, а также их вклад в повышение интереса к суфизму в западных странах. Хотя суфизм и суфийская литература были распространены в мусульманских странах на протяжении веков, внимание западных ученых они привлекли в последние сто лет. Многие американские и европейские исследователи, особенно британские ученые, внесли значительный вклад в изучение суфизма. Их работы – академические статьи, исследования и монографии по данной теме – сыграли важную роль в распространении знаний о суфизме в западных странах и формировании непредвзятых представлений о нем. В данной статье рассматриваются идеи, исследования и творческие работы таких британских ученых, как Мартин Лингс, Девин ДеВиз и Рейнольд Николсон, посвященные суфизму. Цель статьи – глубокий анализ и обсуждение вклада данных ученых в исследование суфизма, для ее достижения используются аналитический и сравнительный методы.

**КЛЮЧЕВЫЕ
СЛОВА**

Суфизм, тарикат (духовный путь), дервиш, муршид (духовный наставник), мюрид (ученик), зикр (поминание), таджалли (проявление), шариат (исламское право), хакикат (истина), ма'рифат (гнозис), ясавия, кубравия, накшбандия.

ENGLISH SCHOLARS OF SUFISM

Khaliyeva Gulnoz Iskandarovna

Doctor of philological sciences, professor
Uzbekistan State University of World Languages
Tashkent, Uzbekistan

[Orcid ID: 0000-0001-5013-0792](https://orcid.org/0000-0001-5013-0792)

Qo'chqoraliyeva Xosiyatxon Iqboljon qizi

2-year Master's degree student
Uzbekistan state world languages university
Tashkent, Uzbekistan

e-mail: Xosiyatxon2306@gmail.com

tel: +998910593430

ABSTRACT

The objective of this article is to examine the scientific research and findings of English scientists who have studied sufism, and to assess their impact on the growing interest in sufism in Western countries. Although sufism and sufi literature have been present in Muslim nations for centuries, they have also garnered the interest of Western academics in the past century. Many European and American researchers, especially British scientists, have made significant contributions to the field of sufism. Through their academic articles, research and books on this subject, they have played a crucial role in spreading the understanding of sufism in Western countries and in developing appropriate notions of sufism. This article explores the concepts, studies, and artistic contributions of British academics such as Martin Lings, Devin DeWeese, and Reynold Nicholson regarding Sufism. The aim of this presentation is to present a thorough analysis and discussion of the valuable contributions and significant research outcomes achieved by these individuals. Furthermore, in this article, the author skillfully employs both analytical and comparative methods to thoroughly analyze and evaluate the findings.

KEY WORDS

Sufism, tariqa (spiritual path), dervish, murshid (spiritual guide), murid (disciple), dhikr (remembrance), tajalli (manifestation), sharia (Islamic law), haqiqah (truth), ma'rifah (gnosis), Yasawiyya, Kubrawiyya, Naqshbandiyya.

KIRISH

Tasavvuf bu islom dinida keng tarqalgan ma'naviy-ma'rifiy yo'l bo'lib, qalbni poklash, nafsni yengish, doimiy zikr va shunga o'xshash amallar yordamida insonni ruhiy kamolotga yetkazishni maqsad qiladi. Islom dinidagi ushbu o'ziga xos yo'nalish juda uzoq qillardan beri musulmon o'lkalarida mashhur bo'lgan hamda ko'plab avliyolarni yetishtirib chiqargan va hozirgacha ham tasavvuf ba'zi silsilalari davom etib kelmoqda. Shu bilan birga tasavvuf adabiyoti ham bu o'rinda muhim ahamiyatga ega bo'lib, avliyo zotlar tomonidan yozilgan turli xildagi she'rlar, hikmatlar, masnaviylar hamda g'azallar bugungi kunda tasavvufni o'rganishning eng asosiy manbalari bo'libgina qolmay, nafsni poklab, ishq ilohiyga yetishish yo'lida muhim qo'llanma ham bo'la oladi. Bu kabi manbalarga Ahmad Yassaviyning "Devonining hikmat" to'plami, Jaloliddin Rumiy masnaviylari, Umar Xayyom, Bedil, Yunus Emro kabilarning purhikmat she'r-u ruboiylari yaqqol misol bo'la oladi. O'zining purma'noligi, ajoyib badiiy uslubi hamda tarixiy ahamiyati jihatidan ushnu turdagi adabiyotlar bugungi kunda nafaqat musulmon ahli ilmlari balki g'arb olim va tadqiqotchilarining ham diqqatini tortmoqda. Martin Lings, Devin Deweese, Reynold Nikolson, Uilyam Chittik hamda Trimingemlar shular jumlasidandir. Tasavvufshunos ingliz olimlari mavzusi hozirgi kunda dolzarb hamda yangi bo'lganligi sababli bu mavzu yuzasidan yurtimizda bir necha ilmiy ishlanishlar olib borilgan bo'lib, yana juda ham ko'plab ilmiy ishlarni amalga oshirish mumkin Ularning tasavvuf sohasida olib borgan ilmiy tadqiqotlari, chop ettirgan ilmiy maqola va kitoblari tasavvuf adabiyotini g'arb olamiga tanishtirish hamda uning asl mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo'lib ushbu maqolada ushbu tadqiqot ishlari bilan qisqacha tanishib, tahlil etamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola mavzusi o'rganilish jihatidan hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki islomiy tasavvufning g'arb mamlakatlarida ham o'rganilishi bu yo'nalishning dunyo bo'ylab qanchalik Kent yoyilib borayotganini ko'rsatib beradi hamda yurtimiz olimlari tomonidan ham ko'plab izlanishlar olib borishni talab etadi. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni to'plash va tahlil etishda

tarixiy, tahliliy hamda qiyosiy metodlardan foydalanildi. Manbalar tarixiy jihatdan tahlil qilinib, turli olimlarning tasavvuf haqidagi fikrlari va tadqiqot yo'nalishlari qiyosiy metod yo'li bilan ham o'rganilib chiqildi. Materiallar to'plashda ilmiy maqola va kitoblar hamda turli xil internet manbalaridan foydalanildi.

NATIJALAR

So'ngi yuz yillik ichida tasavvuf va tasavvuf adabiyoti masalasida sharq olimlari bilan bir qatorda g'arbda xususan ingliz olimlari ham ko'plab izlanishlar olib borishgan. Bulardan birinchi o'rinda Martin Lingsning tasavvuf yo'nalishida olib borgan izlanishlari va kitoblari diqqatga sazovordir. Uning "What is Sufism? (Tasavvuf nima?), A Return to The Spirit (Ruhiyatga qaytish), The Eleventh Hour (o'n birinchi soat), zamonaviy tasavvuf namoyandasi Shayx Ahmad al-Alaviy haqidagi Sufi Saint of the Twentieth century (yigirmanchi asr tasavvuf avliyosi) nomli asarlari tasavvufning mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa Devin Devisning "Studies on Sufism in Central Asia" (Markaziy Osiyodagi tasavvuf bo'yicha tadqiqotlar) asari hamda ko'plab ilmiy maqolalari, Reynold Nicholsonning "Mystics of Islam (Islom mutasavviflari)", "The Idea of Personality in Sufism" (Tasavvufdagi o'zlik tushunchasi), "Studies in Islam Mysticism" (Islom tasavvufshunosligi bo'yicha tadqiqotlar) nomli asarlari, J.Spenser Trimingemning "Sufi order in Islam" (Islomdagi tasavvufiy tariqatlar) hamda Uilyam Chittikning o'nlab tasavvufiy asarlari va ilmiy maqolalari islom ruhiyati va g'arb madaniyati o'rtasida ko'prik vazifasini ado eta oladi.

MUHOKAMA

Martin Lings. Yuqorida aytilganidek tasavvuf va tasavvuf adabiyotini o'rganishda ingliz yozuvchisi, islomshunos olim, faylasufi Martin Lingsning xizmati katta. U o'zining "What is sufism?" (Tasavvuf nima?) nomli asarida tasavvufga quyidagicha ta'rif beradi va bu asari orqali tasavvufning asl mohiyatini ochib beradi: *"Sufism is nothing other than Islamic mysticism, which means that it is the central and most powerful current of that tidal wave which constitutes the Revelation of Islam; and it will be clear from what has just been said that to affirm this is in no sense a depreciation, as some appear to think. It is on the contrary an*

affirmation that Sufism is both authentic and effectual.” (M. Lings, 1975, 10)
“*Tasavvuf Islomiy mistitsizmning aynan o‘zidir, ya‘ni u Islomda vahiyning markaziy va eng kuchli oqimini tashkil etadi. Yaqindagina aytilgan gaplardan shuni anglash mumkinki, bu haqiqatni tasdiqlash, ayrimlar o‘ylaganidek, tasavvufni kamsitish emas. Aksincha, bu tasavvufning ham haqiqiyligi, ham samaradorligini tasdiqlashdir.*” (muallif tarjimas) Ushbu jumalarning o‘zi ham tasavvuf tushunchasi Martin Lings asarlarida qanchalik haqqoniy ifodalanganligini isbotlaydi.

Qolaversa uning 1971-yilda chop etilgan “A Sufi Saint of the Twentieth Century” (XX asr tasavvuf avliyosi) asari tasavvuf sohasidagi eng muhim asarlaridan biri bo‘lib, jazoirluk tasavvuf allomasi Shaikh Ahmad al-Alawi hayoti, qarashlari va uning tariqat faoliyatiga bag‘ishlangan hamda tasavvufning nazariy va amaliy asoslari, uning zamonaviy jamiyatga ta’siri hamda tasavvufda murshidning o‘rni kabi mavzularni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, Martin Lingsning Jaloliddin Rumiy ijodi faoliyati asarlari to‘g‘risida ham bir necha asarlari mavjud bo‘lib ularda tasavvuf adabiyotining jozibasi, mazmun-mohiyati va bugungi kundagi ahamiyati bayon etilgan.

Devin Devis. Markaziy Osiyodagi Islomning o‘rni, tasavvuf tariqatlari, tasavvufning islom dini tarqalishidagi o‘rni hamda uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatlarini o‘rgangan amerikalik olim Devin Devis hozirgi kunda Indiana universitetining Markaziy Yevroosiyo tadqiqotlari bo‘limida professor sifatida faoliyat yuritadi hamda Markaziy Osiyo islom tarixi va tasavvufshunoslik sohasida yetakchi olimlardan biri hisoblanadi. Uning tadqiqotlari islomning mintaqadagi tarixi, tasavvufning ijtimoiy va siyosiy jihatlari hamda diniy jarayonlarning mahalliy madaniyatlar bilan o‘zaro ta’sirini chuqur anglashga yordam beradi. Uning ushbu mavzularga yo‘naltirilgan bir qator asarlari, jumladan tasavvuf haqidagi “Studies on Sufism in Central Asia” (Markaziy Osiyodagi tasavvuf bo‘yicha tadqiqotlar) asari juda ham mashhur bo‘lib, ushbu asarda Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlari va adabiyotining ijtimoiy-siyosiy o‘rni hamda hagiografiya (avliyolar hayoti haqidagi yo‘nalish) kabi mavzularga qaratilgan.

Reynold Niklson. Reynold Niklson - ingliz sharqshunosi, tasavvufshunos olim, tarjimon bo‘lib islomiy tasavvufni tizimli ravishda o‘rganishga asos solgan, Qur‘on va hadis orqali tasavvufning ichki ya‘ni ezoterik mohiyatini ochib bergan yetakchi olimlardan hisoblanadi. U o‘zining bir necha tasavvuf tarixi va madaniyatiga doir asarlari bilan bir qatorda Jaloliddin Rumi, Sa‘diy Sheroziy, Farididdin Attor hamda Junaid al-Bag‘odiy asarlarini ingliz tiliga tarjima qilib, ushbu buyuk mutafakkirlarning g‘oyalarini g‘arbda ham keng yoyilishiga vositachi bo‘ldi. U Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarini ingliz tilida tarjima qilgan ekan, tarjimaning so‘zboshida quyidagi fikrlarni keltiradi: - ” *Mysticism is so congenial to the Persian race, and its influence has been so great in almost every department of their life and thought, that some knowledge of the history and doctrines of the Sufis, as the Muhammadan mystics call themselves, is absolutely indispensable to the student of Persian literature. Apart from this general consideration, the inclusion of the Zadhkiratu ‘l-Awliyd in the present Series seems to be justified by the fact that it is the oldest work of the kind in Persian! and that, although deficient in dates and biographical details of any sort, it contains a large amount of material which is not to be found in the later Biographies or, so far as I know, anywhere else. Its value as a source for the history of Sufiism can hardly be overestimated.*” (R. Nicholson, 1905, 5). “Tasavvuf fors irqiga shu qadar mos keladiki, uning ta’siri ularning hayoti va tafakkurining deyarli barcha sohalarida shunchalik katta bo‘lib, o‘zlarini so‘fiylar deb atagan Muhammadiy tasavvufchilar o‘zlarning tarixi va ta’limotlari haqida ma’lum ma’lumotlarga ega bo‘lish fors adabiyotini o‘rganuvchilar uchun mutlaqo zarurdir. Bu umumiy mulohazadan tashqari, “Tazkirat ul-avliyo”ning hozirgi turkumga kiritilishi uning fors tilidagi eng qadimiy asar ekanligi bilan ham oqlangandek ko‘rinadi va har qanday turdagi sanalar va biografik ma’lumotlar kam bo‘lsa-da, u keyingi biografiyalarda yoki, men bilganimdek, boshqa joyda topilmaydigan katta hajmdagi materiallarni o‘z ichiga oladi. Uning so‘fiylik tarixi uchun manba sifatidagi qiymatini yuqori baholash mumkin .” (muallif tarjimasi)

Qolaversa, Reynold Niklson tasavvuf adabiyotini o'rganishda quyidagi o'ziga xos uslublarni ishlab chiqdi:

1. Matnshunoslik yondashuvi: Niklson tasavvufiy asarlarni o'zining asl manbalaridan, arab va fors tillaridan tahlil qilgan va ularni ingliz tiliga aniq va ilmiy tarjima qilgan.

2. Tariqiy va falsafiy tahlil: U tasavvufiy adabiyotlarni chuqur o'rganib, ularni falsafiy jihatdan izohlashga harakat qilgan.

3. Qiyosiy tadqiqot: Tasavvuf va boshqa diniy oqimlar, masalan, xristianlik va hind falsafasi o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni o'rgangan.

Uilyam Chittik. Ingliz olimi Uilyam Chittik zamonaviy g'arb adabiyotini tasavvuf adabiyoti va falsafasini o'rganishda va unga o'ziga xos global tushuncha sifatida yondashishda muhim o'rin tutadi. U tasavvuf adabiyoti, xususan Muhyiddin ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy va boshqa allomalarning asarlari ustida chuqur izlanishlar olib borgan hamda ularning asarlarini ingliz tiliga tarjima qilgan. Shu jumladan uning "The Sufi Path of Knowledge" (Tasavvufning ma'rifat yo'li) asari Arabiyning tasavvufdagi nazariy va falsafiy qarashlari hamda "vahdatul vujud" (borliq birligi) falsafasini chuqur tahlil etishga yo'naltirilgan muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, u Jaloliddin Rumiy asarlarini tarjima qilibgina qolmay, ularning falsafiy mohiyatini sharhlashga ham katta e'tibor qaratib, Rumiy asarlarining g'arbda ham keng tarqalishiga ulkan hissa qo'shgan. Uilyam Chittik tasavvufning nafaqat nazariy asoslarini balki uning ijtimoiy hayotdagi amaliy asoslarini ham keng tahlil qilgan hamda tasavvufni turli xil cheklovlardan holi global ahamiyatga ega bo'lgan umumbashariy ma'naviy harakat sifatida talqin etadi. Bundan tashqari, olimning "The Self-Disclosure of God" "Xudoning o'zini namoyon qilishi" "Imaginal Worlds" "Tasavvuriy Dunyo(lar)" yoki "Xayoliy Olamsar" "Science of the Cosmos, Science of the Soul" "Koinot Ilmi va Ruh Ilmi" kabi tasavvufiy asarlari ham mashhur. Qolaversa Uilyam Chittik tasavvuf adabiyoti yo'nalishida ko'plab ilmiy maqolalar ham chop ettirgan bo'lib "Rumi and Wahdat al-Wujud" (Rumiy va Vahdatul vujud), "The Unity of Being in Islamic Thought" (Islom ta'limotida borliq birligi) "The Role of Love in Islamic

Mysticism”(Islomiy tasavvufda ishqning o‘rni), “Ibn Arabi’s Cosmology and Sufi Practice” (Arabiy falakiyot va tasavvuf amaliyoti),”Sufism and the Quran”(Tasavvuf va Qur’on) kabi maqolalari shular jumlasidandir. Ushbu maqolalar ham boshqa ilmiy asarlari kabi tasavvuf adabiyotining mohiyati va amaliy qiymatini g‘arb madaniyatiga tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

J. Spenser Trimingem. Tasavvuf bo‘yicha yana bir taniqli ingliz olimi bu J.Spenser Trimingem hisoblanadi. Uning “The Sufi Orders in Islam” (Islomda tasavvuf tariqatlari) asari tasavvuf tariqatlarining kelib chiqishi, tarqalishi va ularning musulmon dunyosidagi ijtimoiy va siyosiy ta’siri haqida batafsil ma’lumot beradi. U tasavvufni ijtimoiy institut sifatida tahlil qilgan va tariqatlarning musulmon madaniyatidagi rolini yoritib bergan. Shuningdek u tasavvufni o‘rganishda o‘ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqqan bo‘lib ,ular quyidagilarni tashkil etadi:

Tarixiy yondashuv: Trimingem tasavvufning kelib chiqishini Qur’on va hadisga asoslangan holatda hamda avvalgi musulmonlar tajribasidan kelib chiqqan holda tahlil etadi.

Geografik yondashuv. U o‘z kitobida turli joylardagi musulmon o‘lkalarida tarqatgan tariqatlar va ularning tafovut va o‘xshashliklarini yoritib beradi.

Ijtimoiy yondashuv. Trimingem tasavvufning musulmon jamiyatidagi o‘rni hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga alohida urg‘u bergan.

Uning tasavvuf haqidagi o‘ziga xos fikrlarini ushbu jumladan ham anglash mumkin : *“I define the word *şüfi* in wide terms by applying it to anyone who believes that it is possible to have direct experience of God and who is prepared to go out of his way to put himself in a state whereby he may be enabled to do this. Many will not be happy about this definition, but I find it the only possible way to embrace all the varieties of people involved in the orders.”* (J.C.Trimingham, 1971,8)” *“Men “sufiy” so ‘zini keng ma’noda ta’riflab, uni Xudoni bevosita his etish mumkinligiga ishongan va buni amalga oshirish imkoniyatini yaratish uchun o‘zini shunday holatga keltirishga tayyor bo‘lgan har qanday kishiga nisbatan qo‘llayman. Ko‘pchilik bu ta’rifdan mamnun bo‘lmasligi mumkin, lekin men buni buyruqlar*

(tariqatlar) bilan shug'ullanuvchi barcha turdagi odamlarga mos keladigan yagona usul deb hisoblayman."

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda tasavvuf adabiyoti mavzusi ingliz tadqiqotchilari orasida keng tarqalgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi va bu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan olimlarning yuzlab asar va ilmiy maqolalarini topish mumkin. Ushbu maqolada tasavvuf adabiyoti bilan shug'ullangan bir necha olimlar va ularning tadqiqot natijalari ko'rib chiqildi va tahlil etildi. Ushbu olimlarning tasavvuf adabiyotini o'rganishda xizmatlari va o'rni beqiyos bo'lib, ular tasavvuf adabiyoti namunalari g'arb ommasida keng yoyilishiga vositachi bo'lmoqda. Shuningdek, ular ilmiy asarlari va maqolalari tasavvuf falsafasi va g'arb madaniyati o'rtasida mustahkam ko'priq vazifasini o'tay oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu mavzuda yana ko'plab ilmiy ishlar qilish mumkin, yuqorida keltirilgan barcha olimlarning ishlari alohida chuqur o'rganilib chiqilishi va ayniqsa Martin Lingsning tasavvuf yo'nalishidagi faoliyati masalasida ko'plab izlanishlar olib borilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Chittick, W. The Sufi Path of Knowledge: Ibn al-'Arabi's Metaphysics of Imagination. - Albany: State University of New York Press, 1989. - 326 p.
2. Chittick, W. Dina Loe: Islamic Literature and the Path. - New Haven: Yale University Press, 2013. 180p.
3. Chittick, W. The Perfect Man as the Prototype of the Self in the Sufism of Jami. - Tehran: J. Story, 2013. 157 p.
4. Chittick, W. The Imprint of the Bezels of the Wisdom. - Tehran: Sophia Perennis, 1975 and 1976. 43 p.
5. Dewese, D. Studies on sufism in Central Asia. - Farnham, Surrey: Ashgate, 2012. 354 p.
6. Lings, M. What is sufism? - Pakistan: Suhail Academy, 1975. - 135 p.

7. Lings, M. The Sufi Saint of Twentieth Century. - Pakistan: Suhail Academy, 1981. - 242 p
8. Nicholson, R. A. The mystics of Islam. - London: G. Bell and Sons LTD, 1914. - 178 p.
9. Nicholson, R. A. Studies in Islamic Mysticism. - Cambridge: The University Press, 1921. - 282 p.
10. Nicholson, R. A. Faridu'ddin 'Attar's -Tadhkiratu 'L-Awliya. - London: Great Russell, 1905. - 450 p.
10. Trimingham, J. S. Sufi orders in Islam. - Oxford: Clarendon Press, 1971. - 336 p.

REFERENCES

1. Chittick, W. (1989). *The Sufi Path of Knowledge: Ibn al-'Arabi's Metaphysics of Imagination*. Albany. State University of New York Press, 326 p.
2. Chittick, W. (2013). *Diaine Loue: Islamic Literature and the Path*. New Haven. Yale University Press, 180p.
3. Chittick, W. (2013). *The Perfect Man as the Prototype of the Self in the Sufism of Jami*. Tehran. J. Story, 157 p.
4. Chittick, W. (2012). *The Imprint of the Bezels of the Wisdom*. - Tehran: Sophia Perennis, 1975 and 1976. 43 p.
5. Dewese, D. *Studies on sufism in Central Asia*. - Farnham, Surrey: Ashgate, 354 p.
5. Lings, M. (1975). *What is sufism?* - Pakistan: Suhail Academy, - 135 p.
6. Lings, M. (1981). *The Sufi Saint of Twentieth Century*. - Pakistan: Suhail Academy, - 242 p
7. Nicholson, R. A. (1914). *The mystics of Islam*. - London: G. Bell and Sons LTD, 178 p.
8. Nicholson, R. A. (1921). *Studies in Islamic Mysticism*. - Cambridge: The University Press, - 282 p.
9. Nicholson, R. A. (1905). *Faridu'ddin 'Attar's -Tadhkiratu 'L-Awliya*. - London: Great Russell, - 450 p.
10. Trimingham, J. S. (1971). *Sufi orders in Islam*. - Oxford: Clarendon Press, - 336 p